

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIVASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIVAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 20 October 2025**Accepted:** 15 November 2025**Published:** 30 November 2025*Article / Original Paper***ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED AT THE SUYIRLITEPA SITE AND ANALYSIS OF SELECTED COINS****Ismoilov Ubaydulla Mamat ogli**

“TIAME” National Research University,

PhD in History, Senior Lecturer

Abstract. This article analyzes the formation, development, and historical periodization of the Suyurlitepa archaeological site located in Qorabuloq village of Ohangaron district, Tashkent region, based on archaeological and numismatic evidence. Covering an area of 80 hectares, the monument was first recorded by Y. Buryakov in 1960. Later systematic excavations revealed that Suyurlitepa was an urban-type settlement consisting of four main structural parts: the ark (citadel or ruler's residence), shahristan (urban center), rabad (craftsmen's and merchants' quarter), and temple (religious center). Excavations uncovered coins that indicate the city's life began in the 3rd–5th centuries AD and continued uninterrupted until the early 13th century. The analysis of these coins shows that Suyurlitepa was one of the key political, economic, and religious centers of the Chach–Ilak region, where coins from the Sogdian, Samanid, and Qarakhanid periods circulated actively. The study also highlights the development of metallurgy, trade networks, and urban infrastructure within the settlement. The research results confirm that Suyurlitepa played an important role in the development of early medieval urban culture in Central Asia.

Keywords: Suyurlitepa, Ohangaron Valley, Ilak, Chach, ark, shahristan, rabad, temple, urbanism, numismatics, Samanids, Qarakhanids, Sogdiana, trade, metallurgy, archaeological layers, periodization.

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI**Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li**

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi


E-mail: ubaydulla.ismoilov.94@mail.ruwww.orcid.org/0009-0000-5078-6265

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyati Ohangaron tumani Qorabuloq qishlog'ida joylashgan Suyurlitepa yodgorligining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy davrlashtirilishi arxeologik va numizmatik manbalar asosida tahlil qilinadi. Maydoni 80 gektarni tashkil etuvchi bu yodgorlik dastlab 1960-yilda Y. Buryakov tomonidan qayd etilgan. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Suyurlitepa shahar tipidagi yodgorlik bo'lib, uning tuzilishi ark (hokim qarorgohi), shahriston (shahar markazi), rabot (hunarmandlar va savdogarlar mahallasi) hamda ibodatxona (diniy markaz) qismlaridan iborat ekani aniqlandi. Qazishmalar davomida topilgan tangalar shahar hayoti milodiy III–V asrlarda boshlangan va XIII asr boshlarigacha uzluksiz davom etganini ko'rsatadi. Tangalar tahlili asosida Suyurlitepa Choch–Iloq o'lkasining muhim siyosiy, iqtisodiy va diniy markazlaridan biri bo'lganligi, bu yerda Sug'd, Somoniy va Qoraxoniylar davrlariga oid pul muomalasi faol bo'lganligi aniqlanadi. Shuningdek, metall ishlov berish, savdo-sotiq yo'llari va shahar infratuzilmasining shakllanish jarayonlari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari Suyurlitepaning O'rta Osiyodagi ilk o'rta asr shaharsozlik madaniyatining rivojlanishida alohida o'rinda ega bo'lganini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: Suyurlitepa, Ohangaron vodiysi, Iloq, Choch, ark, shahriston, rabot, ibodatxona, shaharsozlik, numizmatika, Somoniylar, Qoraxoniylar, Sug'd, savdo-sotiq, metallurgiya, arxeologik qatlam, davrlashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N01>

Kirish. Suyurlitepa Toshkent viloyatining Ohangaron tumani Qorabuloq qishlog'ida joylashgan shahar tipidagi yodgorlikdir. Maydoni 80 gektar. Koordinatalari: 40°53'45.84"C, 69°54'45.65"B.



(1-rasm. Suyurlitepa yodgorligining “Google earth” yordamida yuqoridan olingan ko‘rinishi)

Dastlab 1960-yilda Y. Buryakov tomonidan qayd qilingan. Olim shaharning ikki qismli strukturaga ega ekanligi, shahar yadrosi to‘g‘ri to‘rtburchak ekanligi, umumiy maydoni 11,2 ga.ni tashkil etishi haqidagi ma‘lumotlarni keltiradi. Shahriston va ark ustidan VII – XI asrlarga oid sopol parchalarini uchratgan. Yodgorlik nomini ilk bor Seviltepa yoki Munchoqtepa shaklida tilga olgan [1]. Lekin shahar xarobalarida qazishma ishlarini o‘tkazmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu shaharning tarixiy ahamiyati borasidagi dastlabki chiqish 2007-yilda amalga oshirildi: “Правда Востока” gazetaning 140-sonida S. Ashirovning “Потерянная столица государства Илак” (“Iloqning yo‘qotilgan poytaxti”) nomli maqolasi chop etildi. Unda oldingi fikrlardan farqli o‘laroq, Iloqning poytaxti M.Ye. Masson, Yu.F. Buryakovlar Tunkat, deb atayotgan yodgorlik o‘rnida emas, balki Suyurlitepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan degan qarash ilgari surildi [2].

Shahardagi dastlabki qazishma ishlari 2010-yilda S. Ashirov tomonidan amalga oshirildi. Ammo bu qazishma ishlari ilmiylik asosida emas, balki tartibsiz amalga oshirilgan. Qazishma ishining chegaralari ham aniqlanmagan edi. Qisqa muddatli ishlar natijasida shaharning sharqiy tomonidagi tepalikchada kichik bir qazish joyi ochilgan. Biroq bu shahar tarixiga oid deyarli hech qanday ma‘lumot bermadi, faqatgina XI – XII asrlarga oid qo‘lda va charxda yasalgan sopol parchalari topildi, xolos. Shuningdek, bu yerdagi qazishma ishlari chala holda tashlab qo‘yildi. S. Ashirovning so‘zlariga ko‘ra, shahardagi tepalikdan bir qancha numizmatik

materiallar – Choch, buxorxudotlar, somoniylar va qoraxoniylar davriga oid tangalari yig'ib olingan [3]. Yodgorlik yaqinida yashovchi uy egasining aytishicha, bu tangalar metall aniqlovchi uskuna yordamida terib olingan. Bu esa yodgorlik ustki qatlamining turli joylarda betartib teshikchalar ochilib, arxeologik obyektga shikast yetishiga sabab bo'lgan. Topilgan tangalarning keyingi taqdiri ham ma'lum emas.

Ushbu qazishmadan keyin Suyirlitepadagi barcha tadqiqotlar ilmiy jihatdan asoslangan holda akademik A. Asqarov va uning shogirdlari ishtirokida amalga oshirildi.

Xususan, 2012-yilda yodgorlikning shimoli-g'arbiy chekkasidagi eng baland tepalikda qazishma ishlari olib borilgan. U yerdan aniqlangan inshoot qoldiqlari, xonalar devorining qizil rangga bo'yalganligi, qalin kul qatlamlari va boshqa dalillarga asoslanib, ushbu tepalik shaharning diniy markazi hisoblangan ibodatxona o'rni ekanligi haqida xulosalar berilgan [4].

Muhokama va natijalar. 2020-yil yodgorlikning ark (hukmdor qarorgohi) deb taxmin qilingan qismining shimoli-g'arbiy burchagidan 15x20 metr o'lchamdagi hududda qazishma ishlari olib borildi. Qazishmalar natijasida bu joy arkning shimoli-g'arbiy qismidagi minoralardan biri ekanligi isbotlandi [6]. Yodgorlikning yoshini aniqlash maqsadida uzunligi 50 m, eni 5 metr bo'lgan transheya qazib tushilgan bo'lib, quyi qatlamlar milodiy IV asrga oid, eng yuqori qatlamlar esa XII asrga oid, degan xulosaga kelingan [5].

2022–2023-yillarda O'rta Ohangaron havzasidagi Suyirlitepa va Tunkat yodgorliklarida muallif ishtirokida bir qator qazishma ishlari amalga oshirildi [7][8]. Suyirlitepa arkidan shimoli-g'arbda, ibodatxona mulkiga tegishli deb taxmin qilingan nisbatan balandroq tepaliklardan biri ochib o'rganildi. Natijada, bu yer ilk o'rta zodagonlaridan biriga tegishli qasr bo'lib chiqdi. Bundan tashqari, shaharning ichki va suv yo'llari, shahar shakllanishidan oldinroqqa tegishli yarim yerto'lalardan iborat turar-joylar, 3 xil davr, 3 xil turdagi qabrlar ochib, tadqiq etildi [9].

Shuningdek, yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda shahardagi pul muomalasidan darak beruvchi 10 dona tanga topildi. Ular ichida III–V asrlarga oid tangalardan tortib, XIII asr boshlariga oid tangalarni ham uchratish mumkin. Ushbu tangalar nafaqat shahardagi ichki va tashqi pul muomalasi haqida ma'lumotlar beradi, balki shahar hayotining boshlanish hamda tanazzul chog'larini aniq sanalashtirishga ham imkoniyat yaratadi. Bu bizga qadar qilingan tadqiqotlarda Suyirlitepa o'rnidagi shaharda hayotning tugash sanasi aniq emasligini ko'rsatadi [10][5][11].

T/r	Internet manzillaridan olingan		Suyurlitepa tangalari		VANTA Element - S (Koreya) uskunasida olingan tahlillar
	Oldi	Orqasi	Oldi	Orqasi	
1					XXX
2					XXX
3					
4					
5					

(2-rasm. Suyurlitepa hududidan topilgan tangalar).

Suyurlitepa joylashgan hududlar oldin Qang' konfederatsiyasi tarkibida, keyinchalik Choch-Iloq o'lkasi sifatida mavjud edi. Ushbu hududning Iloq deb atala boshlashi haqidagi dastlabki yozma manba VII asrda Xitoydan o'z sayohatini boshlagan missioner – rohib Syuan Szyan bilan bog'liq. Xususan, u Iloqda "o'z harbiy guruhlariga ega bo'lgan zodagonlar vakillari ko'p, ular o'zaro urushlar olib boradilar va asosan Turk xoqoniga bo'ysunadilar", degan fikrlarni bildiradi. Ana shu hukmron dehqonlarning salohiyati iqtisodiy hayotda, birinchi navbatda, oltin va kumush konlariga egalik qilishda bosh rolni o'ynaydilar. Ilk o'rta asrlar Ohangaron vodiysida tog'-kon ishlarining jadal rivojlanishi shaharsozlik madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Choch-Iloq hududlarida ilk tangalar III asrdan boshlab muomala vositasi sifatida paydo bo'la boshlaydi. Ular Sug'd tangalariga taqlidan ishlab chiqarilgan [13]. **Qanqa va unga yaqin bo'lgan yodgorliklardan topilgan numizmatik materiallar ularning mahalliy hukmdorlar tomonidan zarb qilinganligini ko'rsatadi** [14]. Choch hududlariga oid eng qadimiy tangalarning ko'pchiligi Qanqa shahri xarobalaridan topilgan. Milodiy II–III asrlarda zarbxona ham aynan shu shaharda joylashgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas [13]. Choch tangalarining qo'shni Sug'd va Farg'ona hududlaridan ham topilishi, **so'nggi antik davrda savdo-pul munosabatlari jadal rivojlanganligini ko'rsatadi**.

Suyurlitepadan topilgan tangalar ichida eng kichkinasining og'irligi 3,70 gramm, diametri 1,5 santimetrni tashkil qiladi. U yodgorlikning janubiy qismida ochilgan yarim yerto'lalardan iborat bo'lgan turar-joylar ochilishi jarayonida topildi. Uning bir tomonida ushbu  ko'rinishdagi tamg'a mavjud. Bunday tamg'ali tangalarning old tomonida chapga qaragan, uzun sochlarini orqasiga tushirgan, sochlarini tutib turishi uchun soch aralash peshonasiga lenta bog'lagan oti noma'lum shaxs tasviri, orqa tomonida esa  ko'rinishidagi tamg'a va uning atrofida aylanasi sug'd yozuvida Choch hukmdorining ismi yozilgan [15]. Ushbu tamg'a III–V asrlarda Choch hokimlarining ramzi hisoblangan. Bu esa tangani aynan shu asrlar bilan davrlashtirish imkonini beradi (2-rasm. 1-tanga).

Turk xoqonligigacha bo'lgan davrda Toshkent vohasi hududida 8 ta tanga zarb qilish huquqiga ega bo'lgan mulkliklar mavjud bo'lgan. Ilk o'rta asr tangalarida sug'diy va turkiy unvonlarning bir tangada berilish holati ham uchraydi [13].

2022-yilgi qazishmalar chog'ida Suyirlitepa arkinining shimoli-g'arbiy tomonidagi tepalikda ochilgan bino polidan yana bir tanga topildi. Uning avers qismi ancha yomon ahvolga kelib qolganligi tufayli, undagi belgi va yozuvlarni aniqlash mushkul, lekin revers tomonida Choch hukmdorlarining an'anaviy ayri tamg'asi sug'd yozuvidagi so'zlardan iborat ekanligi aniq bilinib turadi (2-tanga). Undagi yozuvlar bilan judayam o'xshash tanga Qanqa yodgorligida ham uchratilgan bo'lib, uning old tomonida (avers) nuqtalardan iborat aylana shakl ichida o'ng tomonga qarab ketayotgan yirtqich hayvon (bars) tasviri, orqasida (revers) markazda “𐰽𐰺𐰍”-shaklidagi tamg'a tushirilgan. Uning atrofi bo'ylab so'g'diy yozuvida soat miliga teskari yo'nalishda *c'cynk ꝥwβw (?)* – “Chach hukmdori (?)” degan so'zlar yozilgan [16]. Bunday tangalar VII–VIII asrlar bilan davrlashtirilgan [17]. (2-rasm. 2-tanga).

IX asrga kelganda yirik Turkiston hududlari somoniylar sulolasi boshqaruviga o'tgan. Hududning ulkanligi bois turli viloyatlardagi pul munosabatlarining holati bir-birdan farq qilgan. Markaziy shaharlar hisoblangan Buxoro va Samarqandda turli dirham tangalar keng tarqalgan. Ular dirham, musayyabiy, g'itriy va muhammadiy dirhamlari deb atalgan hamda ular tovar hisobida bo'lgan.

Iloqda ham oltin va kumush tangalar muomalada bo'lgan. Iloq Samarqand va Buxorodan keyingi uchinchi tizimli tarzda tangalar zarb qilingan hudud hisoblangan [18].

Ohangaron havzasi hududlarida somoniylar davriga oid ko'plab mis tangalar topilgan, xususan, Suyirlitepa hududida ham uchraydi. Suyirlitepa tangasining diametri 2,5 sm., qalinligi 1 mm, og'irligi 4,27 gramni tashkil etadi. Uning har ikki tomoniga qabariq holatda arab alifbosining kufiy xatidagi yozuvlar tushirilgan. Uning old tomoni markazidagi halqa ichiga “Qur'oni Karim”dan olingan kalima yozilgan: “لا اله الا الله وحده لا شريك له, *la ilaha illallohu vahdahu la sharika lah*”, ya'ni “Allohdan o'zga iloh yo'q, u yolg'iz, uning sherigi yo'q”, kalimasi yozilgan. Tanganing aylanasi bo'ylab chetiga, eng yuqori qismidan soat ko'rsatgichiga teskari holatda “*bu tanga Alloh nomi bilan 305-yil Tunkat–Iloqda zarb qilindi*” — بسم الله ضرب هذا الغلس. تنوكت اطلاق سنه — *خمس وثلاثمائة* – degan yozuv tushirilgan. Orqa tomoni markazida nuqtachalardan tashkil topgan halqa ichiga, 5 qator qilib, “Alloh, Muhammad Allohning elchisidir, Nasr” – الله محمد رسول الله نصر so'zlari bitilgan. Nuqtali halqaning tashqi aylanasi bo'ylab, eng yuqori qismidan soat ko'rsatgichiga teskari tarzda “*sayid amir Nasr Ahmad o'g'li buyrug'i, Alloh uni asrasin* – مما امر به الامير السيد نصر بن احمد اعزه الله” degan jumlar bitilgan. Ushbu tanga misdan ishlangan bo'lib, lekin bejirimligi, naqshinkorligi, nafisligi jihatidan oltin (dinor) va kumush (dirham) tangalardan qolishmaydi (2-rasm. 3-tanga). Ushbu davr tangalari xoh oltin, xoh kumush, xoh misdan tayyorlangan bo'lsin, ulardagi jumlar bir-biridan farqlanmagan.

Tangada nomi keltirilgan Nasr Ahmad o'g'li mashhur somoniy hukmdor Ismoil Somoniy (849–907)ning nabirasi hisoblangan (Kamoliddin va Kocaog'lu, 2024, 31-b). Otasi Ahmad ibn Ismoil (907 – 914-yillarda hukmronlik qilgan) o'z soqchilari tomonidan o'ldirilganidan so'ng 8 yoshida amirlik taxtiga o'tiradi. Nasr Ahmad o'g'li davrida (914–943-yillari) somoniylar sulolasi boshqaruv tizimi birmuncha tartibga keltirilgan. Xususan u tomonidan Buxoroning Registon maydonida 10 ta vazirlik (devonlar) uchun ma'muriy binolar quriladi [20]. Lekin shunday bo'lsa-da, Ismoil Somoniydan keyingi avlodlari ma'lum ma'noda unga munosib bo'la olmadilar [21]. Natijada Somoniylar boshqaruvi X asr oxirlarida zaiflasha boshladi. Bu shimoli-sharqiy tomondan qoraxoniylar hujumlari uchun yo'l ochdi.

992-yilda qoraxoniylardan Horun Bug'roxon boshliq qo'shinlar Buxoro tomon qo'shin tortdi. Somoniylarga vassal sifatida g'aznaviylardan Sabuqtegin 20 minglik qo'shini bilan

yordamga keldi. Oradan 4 yil o'tib, 996-yilda qoraxoniylar ikkinchi bor hujum uyushtirdi. Xiyonat yuz berib, Sabuqteginning o'zi qoraxoniylar bilan sulh tuzishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar idora qiladigan hudud faqat Samarqand shahri bilan cheklanib qoldi. Numizmatik manbalarning guvohlik berishicha 384/994–995-yilda Farg'ona va Xo'jand somoniylardan tortib olingan. Bunda qoraxoniylar shahzoda Nasr ibn Ali jonbozlik ko'rsatgan [22]. Aynan u 385/995-yilda Iloq hududlarini ham egalladi. Shundan so'ng Iloqda ham qoraxoniylar tomonidan muntazam tanga zarb etila boshladi. Agar Xo'jand falsalarida faqat Nasrning nomi berilgan bo'lsa, Iloq tangalarida Nasr bilan birga Iloqning dehqoni (hokimi) Mansur ibn Ahmad nomi ham uchraydi (Кочнев, 2006, с. 344). Mansur ibn Ahmad 992–999-yillarda Iloqda hokimlik qilgan. Lekin, uning hokimligining ayrim yillarida zarb qilingan tangalarda Mansur nomi uchramaydi. Bu holat uning o'g'li Muhammad ibn Mansur (1000 – 1005), Bakr ibn Hasanning Iloqqa hokimlik yillarida ham kuzatiladi. Garchi Iloq tangalarda nomi qayd etilmagan bo'lsa-da, ular Iloqqa hokimlik qilishda davom etganlar. Aynan qoraxoniylarning Iloq hududidagi ilk boshqaruviga oid tangalar Suyurlitepa hududida ham uchraydi.

2023-yilda ark shimolidagi qazishma maydonining g'arbga kengaytirilishida ochilgan xona polidan 2 dona tanga topildi. Birinchisining holati ancha yaxshi va old va orqa tomonidagi so'zlar tozalanish natijasida aniq o'qiy olish mumkin bo'lgan holatga keldi (*2-rasm. 4-tanga*). Tanganing diametri 25mm, og'irligi 3,14 grammni tashkil qiladi. Tanganing oldi: markazda nuqtalardan iborat aylana ichida “تکین” (tegin), uning atrofida naqshlar bilan ajratilgan, uchburchak shaklida yozilgan so'zlar bor. Ularni soat millariga teskari tarzda لا اله الا keyin الله لا شريك له keyin deb o'qish mumkin.

Ushbu so'zlarning har birining tepasida kichkina aylana halqaga o'xshash nuqta, shuningdek har bir so'zdan keyin gulga o'xshash naqsh tushirilgan. Tarjimasini “*Allohdan o'zga iloh yo'q. Uning o'zginasi bordir. Uning sherigi yo'qdir*” tarzida o'qish mumkin. Ushbu kalima judayam ingichka chiziqli halqa ichiga yozilgan. Uning tashqi tomonida qalin chiziqli halqa va halqaga harflarining tagini tutashtirib so'zlar bitilgan. Arab alifbosi harflarining halqaga tutashtirib yozilganligi so'zlarni o'qishni qiyinlashtirgan. Unda:

بِسْمِ اللَّهِ ضَرِبَ هَذَا الْفُلْسُ فِي أَيْلَاقِ سَنَةِ سِتٍّ وَ ثَمَانِينَ وَ ثَلَاثَمِائَةٍ

so'zlarini o'qishga muvaffaq bo'lindi. Ularni “*Bismilloh / zuriba hozo al-fuls fi Iloq / sanata sitta va samonin va salosami'a*” deb o'qish mumkin. Ushbu so'zlarning tarjimasini “*Alloh nomi bilan bu fulus* (mis tanga) *uch yuz sakson oltinchi yili Iloqda zarb qilingan*” tarzida o'qildi. Ushbu davrda hisob hijriy taqvim bo'yicha hisoblanganligini e'tiborga olib, milodiy hisobga ko'chirsak, ushbu tanga 996-yilda zarb qilinganligi kelib chiqadi.

Tanganing orqasi: markazda الله محمد رسول الله تَكِينُ الْجَلِيلِ, ya'ni “Muhammad Allohning elchisidir. Buyuk tegin” so'zlari yozilgan. Ushbu so'zlar atrofida ingichka aylana halqa, uning tashqi tomonida nuqtalardan iborat yana bir aylana halqa, uning atrofidan esa qalin uzluksiz chiziq bilan yana bir aylana halqa chizilgan. Ushbu halqaning ustidan aylana bo'ylab yozilgan jumalarning tag qismi halqaga tutashib ketganligi tufayli, ularni o'qish qiyinchilik tug'diradi. Ushbu qismda

“الأمير الجليل طُنْغَا تَكِينُ الْحَسَنِ أميرِ الْمُسْلِمِ مُلْكُ وَعَالَمٍ”

ya'ni “al-amir al-jalil To'ng'a (To'nga) Takin al-Hasan amir al-muslim mulk va olam” (o'girmasi: “olam va mulk, ya'ni mamlakatning musulmon hukmdori, ulug' amir To'nga Takin Hasan”) so'zlarini ham o'qish mumkin. Ushbu tipdagi tangalar hijriy 386–389-yillarda (milodiy

996–999-yillar) Eloq, Fargʻona va boshqa hududlarda zarb qilinib, mamlakatning turli joylari, xususan, Suyirlitepa oʻrnidagi shaharda ham muomalada boʻlgan.

Ushbu maydondagi ikkinchi tanga birinchisiga qaraganda kattaroq (2-rasm. 5-tanga). Unda ham birinchi tangadagi singari arab alifbosining kufiy xatida jumlar bitilgan. Tanga oksidlardan tozalangandan soʻng, aynan shunday tangalar Toshkent viloyatining Oqqoʻrgʻon tumani hududidan ham topilganligi, u qoraxoniylardan Fargʻona xoqonligida hukmronlik qilgan Ibrohim Arslon xoqon (1164–1178) nomi bilan bogʻliq ekanligi aniqlandi [23]. Demak, Suyirlitepadan topilgan tanga ham unga aynan oʻxshashligi tufayli XII asrning birinchi yarmi bilan davrlashtiriladi. Tanganing yuza qismi va yoni yemirilgan, jumlarning ayrim harflari oʻchib ketgan. Ayniqsa, chetlaridagi yozuvlar koʻproq zararlanib, birortasida ham toʻliqligicha saqlanmagan. Har ikkala tomoniga qavariq shaklda arabcha matnlar bitilib, bezaklar tushirilgan bu tangalar quyidagicha tavsifga ega: tanganing old tomoni: ikki qatorli, sakkiz qirra geometrik shaklli hoshiya ichiga, uch qatorda Islom dinida muqaddas hisoblanadigan kalima (*“kalimai Toyyiba”*): *“Allohdan oʻzga (sigʻinadigan) iloh yoʻq! Muhammad Allohning Rasulidir (ﷺ رسول الله محمد / الله محمد / اله الا – La ilaha ila / Alloh Muhammad / Rasululloh)”* kalimasi bitilgan. Hoshiyadan tashqarida, tanganing chetiga, aylanasi boʻylab *“Oʻzjand shahrida, tanga zarb qilingan sana (ظرب نلد الا وزجن سنه – zarb / balad / ala Uzjand / sana ...)* tushirilgan”. Banokat xazinasidagi tangalarning chet qismlaridagi yozuvlar har bir tangada turlicha zararlanganligi ularni toʻliq tiklash imkonini bergan. Umumiy tangalarda arab harflaridagi yozuv bilan tanga zarb qilingan sana tushirilgan boʻlib, unda hijriy 570 (milodiy 1174) yil hisobi berilgan [23].

Tanganing orqa tomoni: qavariq koʻrinishda ikki qator halqa, uning ichiga aylanasiga nuqtachalar, uning ichiga esa toʻrt tomonidan tashqariga uch yaproq shaklida bezatilgan kvadrat hoshiya ichiga *“Ibrohim Arslon (xoqon)”* degan ism va unvon (mansab) tushirilgan. Tangalarning ushbu tomonidagi, hoshiya tashqarisidagi yozuvlar ham oʻchib ketgan. Umumiy tangalardagi yozuvlarning tahlili orqali tanga atrofiga *“dunyoviy hamda diniy olamda adolatli va eng buyuk hukmdor”*, — degan yozuv tushirilganligi aniqlandi [23].

Suyirlitepadan ham ushbu tanganing topilishi Ibrohim Arslon xoqon tangalari Iloq (Ohangaron) vodiysi shaharlaridan Banokat, Qanqa, Suyirlitepa oʻrnidagi shahar, Fargʻonadagi shaharlar, qolaversa, butun Choch – Toshkent, Ustrushona oʻlkalaridagi shahar va qishloqlardagi savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda muomala vositasi sifatida foydalanilganligini koʻrsatadi. Oʻz navbatida, ushbu hududlar oʻrtasida faol savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borilgan.

Qolaversa, tanga Suyirlitepa hududida hayot XII asrning oxirlarida ham davom etganligini koʻrsatadi.

Ushbu tangalarning 5 tasi Vanta Element – S uskunasi yordamida tarkib tekshiruvidan oʻtkazilganda, ularning tarkibida asosan mis, ayrimlarida mis bilan birgalikda rux (latun) ham ishlatilganligi aniqlandi. Xususan, Iloqning somoniylar va qoraxoniylarning X – XI asr tangalarida latundan (mis va rux aralashmasi) xomashyo sifatida foydalanilgan. Qoraxoniylar davrining oxiri, XIII asr boshlarida chiqarilgan tangalar deyarli misdan (90 – 94 % mis, 10-tangada esa 2,4 % kumush ham bor) tayyorlangan. Tangalarning umumiy koʻrinishi, tarkibi, saqlanish holati haqida 2-rasmda batafsil tanishish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Suyirlitepadan topilgan tangalar shaharda hayot III–V asrlarda boshlanib, XIII asrning boshlarida tugaganligini isbotlaydi. Tangalar asosan misdan

tayyorlanib, ularning ayrimlari shahardan 16–18 kilometr uzoqlikdagi Tunkat shahridagi zarbxonada zarb etilgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – 212 с.
2. Аширов С. Потерянная столица государства Илак// “Правда Востока” gazetasi, 20. VII. 2007, – №140.
3. Аширов С.А. К локализации Тунката – столицы Илака // Проблемы древней и средневековой истории Чача / Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrucken: LAP, 2013. – С. 355 – 362.
4. Аскарлов А.А., Исабеков Б.К. Вопросу о локализации столицы средневекового владения Илак // Проблемы древней и средневековой истории Чача / Ред. Ш.Камолиддин. – Saarbrucken, 2013. – С. 345 – 353;
5. Исабеков Б.К. Юқори ва ўрта Оҳангарон водийсининг қадимги ва ўрта асрлар даври маданияти: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. – 142 б.
6. А. Аскарлов, Х. Матякубов, Д. Нормуродов, Б. Исабеков, У. Исмаилов//Суйирлитепа ёдгорлигида олиб борилган археологик қазишмалар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. № 13, 2020 йил. 15–41-бетлар.
7. Аскарлов А., Исабеков Б., Жўрақулов Б., Исмоилов У., Тўхтасинов Д., 2023 йилда Суйирлитепа ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарқанд, 2024. – №16. – Б. 83–89;
8. Аскарлов А., Исабеков Б., Жўрақулов Б., Мамиров О., Исмоилов У. 2023 йилда Тункат ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарқанд, 2024. – №16. – Б. 76–82.
9. U. Ismoyilov. O'rta ohangaron shaharlarining qadimgi va o'rta asrlarga oid qabristonlari (Suyurlitepa yodgorligi misolida). UzA Elektron jurnal. №10 (48). 2023-yil. – B. 192 – 200.
10. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака (V – начало XIII вв.). – М.: Наука, 1974. – 128 с.
11. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975. 202 с.
12. Н.Я. Бичурин (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. // Т. I. М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1950. 382 с.
13. Нормуродов Д.Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (милoddan аввалги XIII – милodий XIII аср бошлари) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2020. – Б. 194.
14. Массон М.Е. Ахангеран: археолого-топографический очерк. – Ташкент, Изд-во Академии Наук УзССР, 1953. – С. 27.
15. Normurodov D. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan oldingi XIII – milodiy XIII asr boshlari). – Toshkent: Renesans press, 2023. – Б. 330.
16. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). Ташкент: изд. Национальной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои, 2007. 120 с
17. Бобоёров Ғ.Б. Ғарбий турк хоқонлиги: тарихи ва танга-пул тизими. – Т.: “Tafakkur avlodi” 2021. – 224 б.
18. Давидович Е.А. Денежное обращение в Мавераннахре при Саманидах // Нумизматика и эпиграфика. – М.: Наука, 1966. – Вып. VI. – С. 103–134.

19. Sh. Kamoliddin, T. Kocaog'lu. O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi (IX – X asrlar) / Oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanmasi. Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – 157 b.
20. Ш.С.Камолитдин, З.А.Илхамов. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв.. – Т.: 2018. – 193 С.
21. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврлардан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 368 б.
22. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209 гг.). Часть I. Источниковедческое исследование / Ответ. редактор В. Н. Настич. – Москва: София, 2006. – 344 с.
23. Normurodov D.R. Banokat-Shohruxiya. – Toshkent: Fan, 2022. – 56 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).